

JAHON  
XALQ ERTAKLARI

O'Z OVOZINI  
QIDIRGAN JO'YA







# O'Z OVOZINI QIDIRGAN JO'JA



UO'K: 398.21(=512.133)  
KBK: 2(50')  
X 22

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma'qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g'oyalar ulug'lanadi.

Kichkintoylar o'zlari tinglagan yoki o'qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o'saveradilar.

O'ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga aylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



ISBN 978-9943-07-759-1

© M. Omon tarjimasi  
© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022



# O'Z OVOZINI QIDIRGAN JO'JA

(Slavyan xalq ertagi)

Quyoshning ilk nurlari yo'ldan shoshib o'tib, devordan oshib o'tib, qorag'at butasining tagiga mo'ralabdi. U yerda esa, yam-yashil maysazor ustida bittagina tuxum turgan ekan. Bir payt undan „Qasir!.. Qusir!.. Shatir-Shutir!“ degan ovoz chiqib, tuxum birdaniga darz ketibdi va kutilmaganda ikkiga ajralib, undan momiqdekkina bir Jo'jacha chiqib kelibdi.

– Xush kelibsan! Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin! Xayrli tong! – deya unga shivirlashibdi yam-yashil maysalar, mayin shabadada ohista chayqalib turgan gullar, maysazor uzra qanot qoqayotgan nozik kapalaklar.

– Chiy! Chiy! – chiyillabdi ingichka tovushi bilan Jo'jacha. – Chiy-chiy-chiy!





– Qarr, Qarr! – Namuncha chiy-chiyilading? Yo Tavba?! Ovoz ham shunchalik chiyildoq va past bo‘ladimi? Hech narsani eshitib bo‘lmaydi-ya. Tovush deganlari baland bo‘lishi kerak. Mana masalan:


„Qarr! Qarr“ – degandek, – Qarg‘a ana shu so‘zlarni aytib, qop-qora qanotlarini qoqibdi-da, o‘zi o‘tirgan daraxt shoxidan „pirr“ etib qayergadir uchib ketibdi.














– Baland tovush, baland ovoz, ha bu chindan ham yaxshi, – deya o‘ylabdi Jo‘jacha. Agar tovushing baland bo‘lsa – hamma seni eshitadi. Biroq, bu baland tovushni men qayerdan ham topsam ekan? Bir axtarib ko‘ray-chi, balki omadim kelib uni topib olarman!

Ayni shu payt, katta bir Qurbaqa shu atrofdagi ko‘l yuzasida nilufar gulining bargi ustida boshlarini alang-jalang qilib o‘tirgan ekan.

– Vaq, vaq, vaq! Vaq! – deya baland ovoz chiqaribdi Qurbaqa.

– Xayrli tong! – debdi unga Jo‘jacha, hayron tikilib – Hurmatli janob siz kim bo‘lasiz, ovozingiz chiroyli ekan! Ayting-chi, menga ham xuddi o‘zingizdek baland ovozda gapirishni o‘rgata olasizmi?

– Vaq-Vaq... Vaqa-vaq... Xa-xaxa. xi-xi... – deya kulib yuboribdi, Qurbaqa. Men Qurbaqaman. Menimcha sen Jo‘javoy, qurbaqalarning ovozi emas,





balki boshqacharoq ovozni qidirib ko'rganing maq... maq... vaq-vaq... maq-maq'ul, deb o'ylayman!

Qurbaqa, shunday debdi-yu, „shalop“ etib suvga sakrabdi.

– Qidirish. Qidirib ko'rish? Biroq qayerdan qidiraman uni? – deya o'ylanib qolibdi Jo'ja.

Xuddi shu topda, uying yonginasida bir Mushuk oftobda toblanib yotgan ekan. U erinchoqlik bilan kerishib, o'zining jaji mushukchalarini tili bilan yalab-yulqab erakalatayotgan emish.

– Chiy-chiy-chiy!.. Kechirasiz, siz kim bo'lasiz? – deya unga murojaat qilibdi Jo'ja, – Mabodo siz menga yordam bera olmasizmi? Men baland, hamma eshita oladigan ovozni izlayapman. U menga judayam kerak.













– Mya-v-uv! Mya-a-uv! – deya miyovlabdi Mushuk. Men Mushukman, bular esa mening bolalarim. Ovozim senga ma'qulmi? Menimcha, u judayam baland. Har holda mening jajji mushukchalarim ovozimni hamma joyda ham bemalol eshita olishadi.

– Ha, sizning ovozingiz chindan ham juda muloyim va yoqimli ekan, – deya hurmat bilan javob beribdi Jo'jacha. Biroq bilasizmi, menga bala-and ovoz kerak edi-da. Toki meni hamma-hamma eshitadigan bo'lsin!

– Ha, shunaqa degin? – deya o'ylanib qolibdi Mushuk. – Unda sen bu masalada Itga uchrashganing ma'qul.

– Voy, rahmat sizga! – deya sevinib ketibdi Jo'jacha va oyoqchalarini qo'liga olib, darrov Itning uychasi tomon chopqillab ketibdi.

Uycha yoniga borib, uning eshigidan sekin boshchasini ichkariga suqibdi-da:

– Chiy-chiy-Chiyy! Salom, salom sizga! Siz It bo'lasizmi? – debdi. Jo'janing ovozini eshitgach, uychaning ichidan kattakon itning paxmoq boshi ko'rinibdi.

– Irr, irrr. salom, salom. Ha, huddi o'zi. Tinchlikmi? Nima gap-larr-irrrr? Nima hodisa yuz ber-rr-di? Irr-r? – so'rabdi It.

– Bilasizmi, haligi... Mening ovozim judayam past. Men esa baland, judayam bala-and ovozda gapirishni xohlayman! Baland ovozda gapirishni o'rgatsangiz, degandim. Iltimos, menga baland ovozda gapirishni o'rgating!



– Jonim bilan! Marhamat o‘rgan! – debdi It. Agar xuddi mendek baland ovoz chiqara olsang, xo‘jayiningni himoya qilishing, hatto bo‘rilarni ham qo‘rqitishing mumkin! It shunday deb hura boshlabdi:

– Vovv! Vo-ovv! Vovu-uu-voo-ov! Qani endi sen ham ana shunday vovullab ko‘rchi?

– Chiy! Chiy! Chi-iy! Chii-iy! Nimagadir hech o‘xshata olmayapman. Kechirasiz. O‘zinga mos baland tovushni boshqa joydan qidiraman, shekilli. Yana bir bor uzr so‘rayman. Xayr, yaxshi qoling!

– G‘oq-g‘oq-g‘oq! Buni qarang! Qachondan buyon hali temirqanot bo‘lmagan polaponlar, ko‘chada bir o‘zlari yolg‘iz, sandiraqlab yuradigan





bo‘lishdi-ya! Kim bunga ruxsat berdiykin? Ki-im? Kattakon G‘oz shunday deya mung‘ayibgina turgan Jo‘jachaga kibr va jahl bilan qarabdi va:

– Shsh-shsh! Shsh-shpish! – deya xunuk ovozda pishillabdi.





Jo‘jacha esa bu tovushdan cho‘chib ketibdi va darhol qariqiz butasining ostiga berkinib olibdi. Keyin o‘zicha shunday debdi:

– Yo‘q yo‘-o‘q! Men zinhor bunaqangi darg‘azab va xunuk ovozga ega bo‘lishi istamayman!

U shunday xayol bilan to G‘oz buta yonidan uzoqlashguncha, barglar ostidan mo‘ralab, poylab turibdi. Shu payt, kutilmaganda Jo‘janing yonginasida kimdir: „Me-yee! Me-yeee!“ – deya judayam g‘amgin, o‘kinch bilan, yig‘lamsiragan ovozda ma‘rab qolibdi. Jo‘jacha uning yoniga boribdi. Qarasa, ma‘rayotgan kichkinagina, junlari oppoq momiqdek Uloqcha ekan. Jo‘jacha undan:

– Hoy, sen kimsan, nega yig‘layapsan? – deya so‘rabdi.

– Me-yee, me-yee! Haligi... Me-yen Uloqchaman. Onamni yo‘qotib qo‘ydim, uning yoniga borishni hohlayman, mee! – debdi Uloqcha.

– Bo‘ldi, bo‘ldi, yig‘lama! Hozir onang ham kelib qolsa ajab emas. Axir ovozingni qara, qanday baland va jarangdor ekan. Men esa faqat: „Chiy-chiy.., chiy-chiy“ – qilaman xolos. Hech kim meni eshitmaydi – debdi Jo‘jacha.





Biroq uning bu gapini mutlaqo o‘rinsiz bo‘lib chiqibdi. Uning ovozini uzoqdan eshitgan onasi, ya’ni Tovuqxonning „qaqog“ laganicha yetib kelibdi.

– Qo-qa-qag‘... qaq-qaq, qaq... Qayoqqa ketib qolding sen zumrasha. Atigi bir daqiqa yoningdan ketsam, sen tuxumdan chiqa solib, o‘zboshimchalik bilan uzoqqa ketib qoo-qoo... qolibsam... Qa..qa... Qara-ya?! Axir sen hali juda kichkinasan yolg‘iz yurgani...Qaa-qa-qaaa-qayyoqqa borsang men bilan borishing kerak! – deya tanbeh beribdi onasi.

– Ona, onajon! Bilasizmi, men... Men, o‘zim uchun haligi bal-a-a-a-nd ovozni qidirdim, – deya so‘zlay ketibdi Jo‘jacha onasiga. Lekin shuncha qidirsam ham, uni hech qayerdan uni topa olmadim!





– Qa-qa qa! Eh, soddagina bolajonim! – deya erkalabdi onasi. Sen mening hozir aytadigan gaplarimga yaxshilab quloq sol va hech qachon bu nasihatimni yodingdan chiqarmagin. Iloji bo‘lsa yodlab olgin, xo‘pmi? Ona tovuq shunday deya quyidagi she’rni aytibdi:

*– Gar ovozing balanddir,  
Yoki pastdir ehtimol.  
Buning hech bir farqi yo‘qdir,  
Aybi yo‘qdir, bilib ol.  
Eng muhimi – o‘z ovozing,  
O‘z so‘zingni ayt mudom,  
Birovlarga taqlid qilma,  
O‘zliging qil namoyon!*

– Gapimni tushundingmi? „Chiy-chiy, chiy! Bo‘lmasamchi, onajon. Hammasini tushundim! – debdi Jo‘jacha. Keyin bo‘yinchasini mag‘rur ko‘tarib baland-baland ovozda:

– Chiy-chiy... chi-chiiy-chiy! – deya shaxdam-shaxdam qadam tashlab ketibdi.







Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/21 - 36



# SICHQONCHA VA QALAM

(Polyak xalq ertagi)


Bir paytlar Vovaning dars stolida ustida qalam bor edi. Kunlardan bir kun, Vova uxlab yotganida, sichqoncha stolga chiqdi. U Qalamni ko‘rdi-yu uni ushlab olib o‘zining kavagi oldiga sudrab keta boshladi. Bundan qo‘rqib ketgan Qalam:

– Iltimos Sichqonvoy, meni qo‘yib yubora qol?! – deya yalinibdi, uni panjasilari bilan mahkam tutib olgan Sichqonga qarab. – O‘zing o‘ylab ko‘r, men senga nima uchun kerakman? Axir, yog‘ochdan yasalgan bo‘lsam, meni yeb ham bo‘lmaydi-ku?


– Men seni yemasam ham, g‘ajishni istayman. Mening tishlarim qichishayapti, shu bois men doim nimanidir g‘ajib turishim kerak. Tamomvassalom! Sichqoncha shunday debdi-da, Qalamning joniga ozor berib, uni „g‘arch“ etib tishlab olibdi.















– Voy, voy – deya baqiribdi Qalam bechora. – Mayli, g‘ajisang, g‘ajiyver, faqat bir iltimosim bor. Menga oxirgi marta biror narsani chizish uchun ruxsat, ber. Keyin nima qilsang ham roziman.

– Mayli, sen aytganingdek bo‘la qolsin! – deya rozi bo‘libdi Sichqoncha. – Istagan narsangni chiza qol, senga ruxsat. Lekin bilib qo‘y, chizib bo‘lganingdan so‘ng, men baribir, g‘ajib, mayda-mayda qilib tashlayman. Bechora Qalam, chuqur xo‘rsinibdi-da, bitta aylana chizibdi.

– Bu nima, pishloqmi? – deb so‘rabdi undan, Sichqoncha.

– Ehtimol, pishloqdir, – debdi Qalam, va yana uchta aylana chizibdi.

– Albatta, bu pishloqning rasmi, ana uchta teshigi ham bor, – deya bilog‘onlik qilibdi Sichqoncha.






– Balki, chindan ham bular pishloqdagi teshikchalardir, – deya ma’qul-  
labdi Qalam va yana bitta kattakon aylana chizibdi.

– Ha, bu olmanining rasmi! – deya baqiribdi Sichqoncha.

– Balki chindan ham olmadir, – debdi Qalam va bir nechta mana bunaqa  
uzunchoq aylanalarni chizibdi.





– Ah-a, bildim, bilib oldim, bular sardelka balig‘i, – deya lablarini yalab, tamshanibdi, Sichqoncha. – Qani tezroq tugata qol, mening tishlarim battar qichishib ketyapti.

– Bir daqiqaga shoshmay turgin, iltimos, – debdi unga Qalam. U katta aylanaga uchburchaklarni chizayotganida, Sichqoncha kutilmaganda baqirib yuboribdi.

– Bu axir... haligi... Mu... mu... haligiga o‘xshaydiku! Bo‘ldi, bo‘ldi... buyog‘ini chizma! Qalam esa unga e‘tibor bermay uzun-uzun qilib mo‘lovlar ham chizibdi.







– I-ye, iye! Bu axir haqiqiy Mushuk-ku! – chiyilabdi qo‘rqib ketganidan Sichqoncha. Keyin kutilmaganda:

– Voy dod, qutqaringlar, yordam beringlar, – deya iniga qochib, berkinib olibdi.

Xullas, o‘shanda beri, Siqoncha o‘z inidan hatto tumshug‘ini ham chiqazmaydigan bo‘libdi. Qalam esa, hali hamon Vovkalarinikida yashar ekan. Lekin uning bo‘yi anchagina qisqarib, juda kichkina bo‘lib qolibdi.

Aziz bolajonlar, Siz ham qalamingizni qo‘lga olib, mana shunday mushukning rasmini chizib ko‘ringchi! Balki sizning uyingizdagi surbet Sichqonlar ham qo‘rqqanidan inlariga berkinib, sizlarni ortiqcha bezovta qilmay qo‘yishsa ajab emas.





82(50')  
X 22

O'z ovozini qidirgan jo'ja / [Matn]: ertak. – Toshkent:  
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y. – 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)  
KBK 82(50')

**RASSOM:**

**SHOHRUX TOSHTURDIYEV**

# JAHON XALQ ERTAKLARI

„Ensiklopediya“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Tarjimon *Muhiddin Omon*  
Muharrir *Sunnat Xo'jahmedov*  
Badiiy muharrir *Shohrux Toshturdiyev*  
Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2022. Bichimi 84×108<sup>1/16</sup>.  
„Times New Roman“ garniturası. 14 kegl.  
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.  
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 869-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya\_nashriyoti\_MU2021



Ensiklopediya\_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591